



HARVARD
DataVERSE

Volume 1 Issue 7
December 2023

ISSN: 2992-8877

Innovation Science and Research

International scientific journal



zenodo



IWORLD
JOURNALS

www.sciencejournal.uz

**International Scientific Journal
INNOVATION
SCIENCE AND RESEARCH
Volume 1 Issue 7
December 2023**



SCIENCEJOURNAL.UZ

**International Scientific Journal INNOVATION SCIENCE AND
RESEARCH.** volume 1 issue 7 – 100p.

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

© Innovation Science and Research

© Authors



Editorial	
Editor in chief Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich	Bosh muharrir Jurayev Ziyovuddin Muhibdinovich
Preparing for publishing Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna	Nashrga tayyorlovchi Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna
MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD	
<p>Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich <i>Doctoral student (DSc) of the department "Study of Islamic Studies and Islamic Civilization ICESCO" of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Faculty of Islamic Studies and International Relations</i></p> <p>Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna <i>Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological Sciences</i></p> <p>Artikova Nargiza Shuxratovna <i>Teacher of the Department of theory of Primary Education at Chirchik State Pedagogical University</i></p> <p>Koziev Umidjon Yandashalievich <i>Head of the Department of Uzbek linguistics, PhD, Associate Professor member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"</i></p> <p>Dilfuza Jalolova <i>Candidate of Medical Sciences, Associate Professor of Samarkand State Medical University.</i></p> <p>Umarova Maxliyo Yunusovna <i>Uzbekistan State University of world languages, candidate of philosophical Sciences, Associate Professor</i></p> <p>Arslanov Sharafutdin Sultanovich <i>doctor of chemical sciences, professor</i></p> <p>Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences</i></p> <p>Oripov Orolboy Ahmedovich <i>Navoi State Pedagogical Institute, PhD</i></p> <p>Fazliyeva Zebo Kamarbekovna <i>Uzbekistan State Academy of choreography, associate professor</i></p> <p>Artikov Askar Akbarovich <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department "theory and methodology of football" of the Uzbek State University of physical education and sports</i></p>	

Darvishov Ibroxim

Associate professor of the Department of Uzbek linguistics member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"

Sevara Nazarova

Philosophy Doctor on Agricultural sciences, Associate Professor of the Department of Soil Science of Bukhara State University.

**“GOSPITAL TA’LIMDA MATEMATIKA FANINI O’QITISHNING SAMARALI
METODLARI”**

Xalilov Zuhriddin Abduraxim o‘g‘li

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi

Andijon viloyati filiali umumiy o‘rta ta’limni

tashkil etish bo‘yicha pedagog xodim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10214145>

Abstract: This article talks about effective methods of teaching mathematics in hospital education and formation of students' logical thinking skills.

Key words: hospital education, logical thinking, modern education.

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital ta’limda matematika fanini o’qitishning samarali metodlari va o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllashtirish haqida so’z boradi.

Kalit so’zlari: gospital ta’lim , mantiqiy fikrlash, zamonaviy ta’lim.

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bunday islohotlar ta’lim tizimida ham amalga oshirildi.

2022-yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Bolalar gemitologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o’rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’grisida” gi qarordir. Ushbu qarorga muvofiq, O’zbekiston Respublikasida ilk marotaba gospital maktab tashkil etildi. Toshkent shahrida ilk bor “Mehrli maktab” tashkil etildi. Bir yildan so’ng “ Mehrli maktab” filiallari Qoraqalpog`iston Respublikasi, Andijon va Farg`ona viloyatlarida ham ochildi.

Gospital ta’lim-uzoq muddat davomida davolanayotgan va hastaligi sabab ta’lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarga ta’lim berishni tashkil etish bilan bog’liq pedagogikaning bo’limidir.

Hozirgi zamonaviylashuv sharoitida ham har bir fan bo‘yicha, jumladan, matematika fani bo‘yicha gospital ta’lim o’quvchilariga yetarli darajada bilimlar berish asosiy masalalardan hisoblanib, bunga erishishni ta’minlash, matematika fanining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Matematika darslarida o’rganiladigan har bir matematik xulosa juda ko’p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi hamda u qat’iylikni talab qiladi. Gospital ta’limda ta’lim olayotgan o’quvchilarda mazkur qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o’rganish jarayonida mantiqiy tafakkur qilish rivojlanadi va matematik xulosa chiqarish madaniyati shakllanadi. O’quvchilarda matematik madaniyatni shakllantirishda biror matematik qonuniyatni ifoda etadigan fikrlarni simvolik ravishda tog’ri ifodalay

olishlari va aksincha, simvolik ravishda ifoda qilingan matematik qonuniyatni ifoda qila olishlariga o'rgatish muhim o'rinni tutadi.

Ta'lismuassasalarida matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uchta omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi: DTS da belgilab qo'yilgan minimal darajadagi bilimlarni berish.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi: fanda olingen bilimlarni kundalik hayotida qo'llay olishi.

Bizga ma'lumki, matematika darslarida o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

Har bir fanda bo'lgani kabi matematika fanida ham ta'riflanadigan va ta'riflanmaydigan tushunchalar mavjud. Gospital maktabda matematika darsida shartli ravishda, ta'riflanmaydigan eng sodda tushunchalar qabul qilinadi. Jumladan arifmetika mavzusida son tushunchasi va qo'shish amali, geometriya mavzusida esa tekislik, nuqta, masofa va to'g'ri chiziq tushunchalari ta'riflanmaydign tushunchalardir.

Gospital maktabning yuqori sinflarida haftasiga 5-8 sinflarda 2 soat, 9 sinfda 2.5 soat va 10-11 sinflarida esa 3 soat matematika faniga vaqt ajratiladi. Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'z aksini topadi.

Gospital maktab o'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA,TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratadi va mamlakatimiz o'quvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlariga munosib qatnashishini ta'minlaydi.

"Mehrli maktab" da barcha fanlar bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarning (o'qituvchi uchun metodik qo'llanma , electron darsliklar) yangi avlodni ishlab chiqilgan va ta'lismarayoniga joriy etilgan. Matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha innovatsion metodikalar yaratilgan.

Dars metodlari shartli ravishda 3 ga bo'linadi: an'anaviy, noan'anaviy va zamonaviy. Har bir metod og'zaki, yozma va ko'rsatmali – amaliy usullarda olib boriladi.

An'anaviy dars o'tish metodida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalilanadi. Noan'anaviy dars ta'lismarayoni markazida o'quvchi bo'lgan o'qitish metodidir. Zamonaviy dars ta'limning rivojlangan shakli bo'lib, u dars marayonida yangi metod va usullardan foydalishni, axborot texnologiyalari asosida dars o'tishni nazar tutadi .

Gospital ta'limga o'quvchilarning o'zini o'zi baholashi, o'quvchilar boshqa o'quvchilarni baholashi va o'qituvchi tomonidan baholash yondashuvlaridan foydalilanadi. Boshqalar bajargan ishni o'quvchi tomonidan, ya'ni o'quvchilarning o'zaro baholashi, sinfdoshining ishi to'g'risida axborotning mavjudligi o'zini-o'zi baholash faoliyatiga ijobjiy ta'sir qiladi. Ishni bajargan o'quvchi o'ziga-o'zi baho qo'yadi. So'ng uning ishi

o'qituvchi tomonidan baholanadi, ikkala baho qiyoslanib, birinchi bahoning obektivlik darajasi aniqlanadi.

Davolanayotgan bolalarni matematika faniga qiziqtirish uchun darsda foydalilaniladigan samarali metodlar va usullar:

1. “ Zanjir” metodi-kvadrat tenglamalarni yechish mavzusi bo'yicha . Har bir qatorning o'quvchilari “Tenglama yoki tengsizlikni yeching” topshiriqli kartochkani oladi. Birinchi o'quvchi topshiriqni bajargach, orqasida o'tirgan o'quvchiga uzatadi. Bu jarayon oxirgi partadagi o'quvchi yechguncha davom etadi. Tez va kam xato bilan bajargan qator g`olib hisoblanadi.
2. “ Mozaika” o'yini–tanlangan qoida alohida bir varoqqa yoziladi va qirqilib bo'laklarga ajratiladi. O'quvchilar bo'laklarni to'gri joylashtirib, qoidani o'qib berishi lozim . Qaysi qator birinchi bajarsa, shu qator g`olib hisoblanadi.
3. “Zinama-zina” o'yini-bunda bir o'quvchi yoki guruhlarda o'tirgan o'quvchilar bilan alohida-alohida o'yinni tashkil etish mumkin . Bunda savollar oddiyidan murakkabga qarab beriladi. Beriladigan ballar ham savolga qarab oshib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashg'ulotlar qiziqarli bo'lishi uchun bu mashg`ulotlardagi har bir masala yoki topshiriq o'zin tarzida o'qitilishi shart. O'zin gospital mактаб yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo`lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Samarali metodlar muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, yani yangi bilim berish, o'tilgan mavzularni mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Matematika o'qitish metodikasi – Jumayev
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2018-yil 27-iyuldagи 191- sonli buyrug'iga ko'ra DTS talablari
3. Umumta'lim maktablarida matematika o'qitish masalalari
4. Gospital ta'limda matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolar - Yusupjanova Sh.M 2022 y

HUJAYRA FIZIOLOGIK JARAYONLAR ASOSI

Tilavoldiyeva Dilafro'z Xabibiddin qizi

*"Central Asian Medical University" Tibbiyot instituti Tibbiy biologiya. Umumiy genetika
fani assistenti*

Xalilova Mohlaroy

Davolash ishi yo'naliishi 1- kurs 2123- guruh talabasi

To'lqinov Isoxon

Stomatologiya yo'naliishi 1- kurs 623- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10229457>

Abstract: This article provides information on the basis of cellular physiological processes.

Key words: Biological system, cell movement, nerve and muscle tissue, substances, oxygen, cytoplasmic membrane.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hujayra fiziologik jarayonlar asosi borasida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Biologik sistema, hujayra harakati, nerv va mushak to'qimasi, moddalar, kislorod, sitoplazmatik membrana.

KIRISH (Introduction)

Barchamizga ma'lumki, hujayra - barcha hayot organizmlarning tuzilish, tarkibiy va funksional birligidir (viruslar bundan mustasno). Hujayra organizmning yashayotgan eng kichik bo'lagi, deb belgilanadi. Ba'zi organizmlar (masalan, bakteriyalar) bir hujayralidir, ya'ni faqat bitta hujayraga ega. Boshqa organizmlar esa ko'p hujayralidirlar (masalan, o'rtacha odam 100 trillion yoki 1014 hujayradan iboratdir; o'rtacha hujayra o'lchami 10 mikrometr, massasi esa 1 nanogramdir). Eng katta hujayra tuya qush tuxumi bo'lib, uzunligi 15 sm, massasi 1.4 kg gacha bo'ladi. Hujayrani ilk marta Robert Guk 1665-yilda kashf qilgan. Inson tanasi juda ko'p hujayrali davlat. Hujayra o'simlik va hayvon organismlarining tarkibiy qismidir. Hujayralarni tadqiq qiluvchi ilmga sitologiya deb ataladi. Hujayralarning shakli, tuzilishi va vazifalari juda xilma-xildir, ammo ularning barchasi umumiy tuzilishga ega. Ammo hujayra tarkibining shakli, o'lchami va xususiyatlari tananing bajaradigan funksiyasiga bog'liq. Eng mashhur ingliz fizik, matematik va mikroskopik Robert Guk ilk bor 1665 yilda hujayraning mavjudligini e'lon qildi. Gukning kashf etilishi natijasida hujayralar turli hayvonot va o'simliklarda mikroskop ostida topilgan. Ularning barchasi binoning umumiy rejasiga ega edi.

Ammo nur mikroskopida faqatgina sitoplazmani va yadroni ko'rish mumkin edi. Elektron mikroskopning ko'rinishi nafaqat olimlarni boshqalarga qarashga, balki ularning ultrafektsiyasini ham ko'rib chiqishga imkon berdi.

Hujayraning asosiy qismlari - yadro, organoidlar va hujayra membranasi bo'lgan sitoplazma. Hujayra membranasi hujayraning jonli tarkibini atrofdan cheklaydi. Plazma membranasining eng muhim xususiyati selektiv o'tkazuvchanlik, ya'ni ma'lum moddalar orqali hujayradan erkin ravishda kirish mumkin. Ushbu xususiyat tufayli membran hujayradagi moddalarning oqishini nazorat qiladi va tashqi muhit bilan almashadi.

Yuqorida aytilgan moddalar hamda suv, ionlar, vitaminlar, gormonlar (hujayra funktsiyasini boshqarib turuvchi) hujayrani tashqi muhitdan ajratib turuvchi plazmatik membrana orqali aktiv va passiv transport yo'li bilan hujayraga kiradi. Xuddi shu yo'l bilan hujayra metabolizmi mahsulotlari hujayradan tashqariga chiqariladi. Moddalarning hujayra ichiga aktiv kirishi (moddalarning yigilishi) va tashqariga chiqarilishi (sekretsiya va ekskretsiya) energiya sarf bolishi bilan kechadi. Ko'pgina hujayra membranalarida shu protsessni ta'minlovchi ATP-aza sistemasi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Moddalarning hujayra ichiga kirishida hujayra organellalari, xususan, endoplazmatik tor va Golji kompleksi xam ishtirok etadi. Fagotsitoz. Ko'p hujayrali organizmlarning hujayralari ziar moddalarni eritmalar holida oladi. Plazmatik membrana orqali hatto yirik molekulalarning hujayralar ichiga kirishi ham elektron mikroskopda korilgan. Ba'zi bir hujayralar esa qattiq moddalarni ham yutish qobiliyatiga ega. Bu jarayon fagotsitoz deb nomlanadi, buni birinchi marta I. I. Mechnikov tomonidan o'tgan asr oxirida aniqlangan.

Fagotsitoz qobiliyati biriktiruvchi to'qima hujayralari makrofaglarida, jigar sinusoid kapillyarining endotelial hujayralarida, buyrak usti bezi, gipofiz, qon ishlovchi organlarning retikulyar hujayralarida (suyak komigi, taloq, limfa tuguni) ham bor. Fagotsitoz ketma-ket bo'ladigan 4 fazadan iborat: 1) fagotsit va fagotsitoz qilinuvchi moddaning ozaro yaqinlashishi. Bu - fagotsitning moddaga nisbatan xemotaksi bilan belgilanadi; 2) fagotsit va fagotsitoz qilinuvchi moddaning juda ham yaqinlashishi (atraksiya davri); 3) moddaning yutilishi; 4) hazm qilinishi.

Moddalarning fagotsitoz qilinishi fagotsit plazmatik membranasining invaginatsiyasi orqali ro'y beradi. Yutilgan moddalar gidrolitik fermentlarga boy lizosomalarda parchalanadi. Pinotsitoz. Qattiq moddalarni fagotsitoz qilishdan tashqari hujayra suyuq moddalarni ham yutishi mumkin. Bu jarayonni birinchi marta Lyuis kuzatgan Elektron mikroskopda oxirgi yillarda olib borilgan tekshirishlar pinotsitoz jarayonida hujayra plazmatik membranasining ahamiyati kattaligini korsatdi. Suyuqlik tomchisi hujayra membranasining bir qismi bilan oralib, sitoplazmaga otadi va u yerda hujayra qobigidan ajraladi. Shunday qilib, pinotsitoz pufakcha devori plazmatik membranadan tashkil topgan.

Pinotsitoz mexanizmi quyidagi fazalarni o'z ichiga oladi:

1) tashqi sitoplazmatik membrana invaginatsiyasining hosil bo'lishi; 2) shu invaginatsiyalarga suyuqlik tomchisining yutilishi; 3) pufakchalarning sitoplazma ichiga otishi hamda sitoplazmatik vakuolalarning hosil bolishi. Pinotsitozga yaqin protsess rofeotsitoz bo'lib, bunda submikroskopik zarrachalar va makromolekula yutiladi. Rofeotsitozni pinotsitozdan farqli ravishda faqat elektron mikrosko'pda korish mumkin. Hujayraning ta'sirlanuvchanligi. Yuqorida aytib otilganidek, hujayra ochnq sistema bolib, u tashqi muhit bilan doimo aloqada boladn. Hujayra temperatura, ximiyaviy tarkibi va boshqa muhitlarning ozgarishiga oziga xos ta'sirlanish bilan javob beradi. Hujayraning bu universal reaktsiyasi hujayraning ta'sirchanligi deyiladi. Hujayrada u yoki bu ozgarishlarga

olib keluvchi faktor esa ta'sirlovchi hisoblanadi. Hujayraning ta'sirlovchi faktorlarga bolgan javobi uning komponentlarining funktsional va morfologik ozgarishlari orqali ifodalanadi. Agar ta'sirlovchi faktorga javoban hujayra tinch holatdan oziga xos bolgan funktsiyani (sekretsiya, otkazuvchanlik, qisqarish va boshqalarni) bajarishga otsa, bunga hujayra qo'zg'aluvchanligi deb ataladi. Hujayra qo'zg'aluvchanligi ta'sirlanuvchanlikning yuqori formasidir. Hujayra ozi uchun adekvat (mos) ta'sirdan tashqari normal holatda uchramaydigan va uning uchun favqulodda bolgan ta'sirlovchi faktorlarga duch keladi. Bu turdag'i qozgatuvchilarga ionlovchi nurlar, temperatura, mexanik va boshqa ta'sirlar kiradi. Tabiiyki, ta'sirlovchi faktorlar turli, vaqt davom etgani singari, hujayraning ularga javobi ham har xildir. Yirik sitologi D.N. Nasonov va uning oquvchilari uzoq yillar davomida hujayraning turli ta'sirlarga javobini organishgan. Buning natijasida D.N. Nasonov paranekroz kontsepsiyasini yaratdilar. Hujayraga turli faktorlar (temperatura, ionlovchi nurlar, gipoksiya va boshqalar) ta'sir qilganda hujayraning ularga javobi printsipli bir xil bo'ladi. Bu ozgarishlar yadro va sitoplazma kolloidi dispersligrining ozgarishidan iborat. Sitoplazmaning yopishqoqligi, boyoq bilan boyalishi oshadi, uning muhiti ozgaradi. Bu ozgarishlar yigindisiga paranekroz deyiladi. Paranekroz boshlanish davrida ta'sirlanish toxtatilsa, orqaga qaytadi. Uzoq va kuchli ta'sirlanish natijasida hujayra nobud bo'ladi. Paranekroz hujayraning olimi- nekrozga o'tishda bir bosqich hisoblanadi.

Hujayra organellalari shikastlovchi ta'sirlarga turlicha sezgi bilan javob beradi. Eng sezgir organellalar mitoxondriya, Golji kompleksi, silliq endoplazmatik tor membranalari, hujayra qobigining maxsus strukturalaridir. Granulyar endoplazmatik tor, yadro qobigi shikastlovchi ta'sirlovchiga anchagina chidamli bo'ladi. Hujayra harakati ta'sirot bilan uzviy bogliq bolib, harakat ta'sirchanlikning tashqi korinishidir. Harakat hujayra ichida modda almashinuvining ozgarishi natijasida hosil bo'ladi. Harakatning eng oddiy turi sikloz hisoblanadi. Bu harakatda sitoplazma ichida organellalarning va boshqa tuzilmalarning siljishi kuzatilib, hujayra tashqi tarafdan harakatsiz korinadi. Bu harakatga misol qilib mitoz bolinish davrida sentriolalarning va xromosomalarning siljishini olish mumkin. Sitoplazma yopishqoqligining oshishi (zoldan gel holatga otishi) harakatni sekinlashtirsa, yopishqoqligiring pasayishi (geldan zolga o'tishi) siklozni kuchaytiradi. Amyobasimon harakat bir hujayrali hayvonlar bilan Ko'p hujayrali hayvonlarning ba'zi hujayralariga xosdir. Amyobasimon harakat qilish oq qon tanachalari - leykotsitlarga, biriktiruvchi toqima hujayralari - makrofaglarga taalluqli bo'lsa ham, ammo regeneratsiya davrida organizmning mutlaq Ko'pchilik Hujayralari shu yo'l bilan harakat qilishi mumkin. Amyobasimon harakat davrida hujayralar yolg'onoyoq (pseudopodiya) hosil qilib, shu yolgonoyoqlarga hujayra tanasining borliq tuzilmalari qoyiladi. Natijada hujayra yolg'onoyoq uzunligi boyicha harakat qiladi. Kiprikchalar va xivchinlar yordamida harakat qilish haivor va osimlik hujayralarida kuzatiladi. Nafas yo'llaridagi kiprikchalar harakati natijasida bu yo'llarga tushgan yot moddalar tashqariga chiqarib yuboriladi. Bachardon naylaridagi kiprikli epiteliy tuxum hujayraning harakatini ta'minlaydi. Kiprikchalar kelishib harakat qiladi, ya'ni bir kiprikchadan song keyingisi qisqarib, yalpisiga to'lqinsimon harakatni yuzaga keltiradi. Xivchinlar yordamida erkak jinsiy hujayralari - spermatozoidlar harakat qiladi. Evolyutsion taraqqiyot davomida harkatning eng oliv formasi - mushak harakati shakllanadi. Bu harakatni silliq mushak hujayralari va

ko'ndalang-targil mushak tolalari bajaradi. Bunday harakat maxsus oqsillar - aktin va miozinning ozaro ta'siri natijasida yuzaga keladi («Mushak to'qimasi» ga Hujayraning o'sishi. Har bir tirik mavjudot ma'lum o'lchamlarga ega. Bu olchamlarga organizm hujayralarining Ko'payishn va osishi orqali erishiladi. Odam tanasining hamma hujayralari osish qobiliyatiga ega. Ammo bizning a'zolarimizdagi Ko'pchilik hujayralar ozining ortacha olchamlarini saqlab qoladi. A'zo aktivligining keskin oshishi yoki patologik jarayonlar natijasida hujayra olchamlari odatdagidan kora kattalashishi - gipertrofiya kuzatiladi. Hujayraning hayot sikli, differentsiallanishi. Yangi hosil bolgan hujayralar hayot siklini otaydi. Hayot sikli hujayraning yangi hujayra hosil bolishida uning keyingi bolinishiga qadar yoki oning olishigacha bolgan davrni oz ichiga oladi. Hujayra o'z hayoti davrida bolinishi, o'sishi, differentsiallanishga uchrashi kuzatiladi. Shuning uchun hujayraning hayot sikli jarayonlarini ikki gruppaga bolish mumkin (Bloch D., Qndman Q., 1955). Birinchi gruppaga hujayraning bolinishi bilan bogliq jarayonlar kirib, uni avtosintetik interfaza deyiladi Ikkinci gruppaga esa, hujayraning osishi, differensirovkasi ma'lum vazifani bajarishga ixtisoslanishi mansubdir (geterosintetik interfaza). Differensirovkaga uchragan hujayra ixtisoslangan hujayra bolib, u ma'lum vazifani bajarishga moslashgan. Ular Ko'pincha bo'linish qobiliyatini yoqotadi. differentsialangan qon hujayralari - eritrotsitlar, nerv hujayralari va hokazo. Ba'zi hujayralar differensirovka holatida bo'linish qobiliyatiga ega bo'ladi (jigar hujayralari). Embrional takomillashish davrida epiteliy, biriktiruvchi toqima, mushak va nerv hujayralari embrional varaqlardan rivojlansa, yetilgan davrida differentsiallanishga a'zolarning turli qismlarida joylashgan kambial hujayralar uchraydi. Qon ishlab chiqaruvchi organlardagi kambial hujayralar «o'zak hujayralar» deb yuritiladi. Hamma hujayralar ma'lum muddatda yashaydi. Masalan, eritrotsitlar 120 kungacha, epidermis hujayralari 4-10 kun va hokazo. Nerv va mushak toqimasi hujayralari organizmniiq butun hayoti davomida yangilanmaydi, degan fikrlar ham bor. Hujayra olish vaqtida hujayra yadro siqilashishi va donadorlikni yo'qotib kichrayishi), karioreksisga (yadroning mayda donachalarga bolinib ketishi), kariolizisga (yadroshng erib ketishi) uchrashi mumkin. Yadrodagi o'zgarishlar oqibatida (birga) sitoplazmada ham qaytarib bo'lmas o'zgarishlar yuz berib, natijada, hujayra halok bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Alberts, B., Jonson, A. va Lyuis, J. (2002). Hujayraning molekulyar biologiyasi. To'rtinchchi nashr. Garland fani.
2. K. A. Zufarov "Gistologiya" 1991, 2001. Toshkent o'zbekcha.
3. Gistologiya, Sitologiya, Embrionologiya. Atlas. Histologi, Vichael H. Ross, PhD. 2003.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANISHI

Umirzakov Iskandar Tuychiyevich
*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 21-umumiy o'rta ta'lif
maktabning geografiya fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10229858>

Аннотация: В данной статье рассматривается применение интерактивных методов на уроках географии.

Ключевые слова: урок, метод, наука, ученик, эффект, естественный, интерактивный, применить, знание.

Annontatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarida interfaol metodlarning qo'llanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: dars, metod, fan, o'quvchi, samara, tabiiy, interfaol, qo'llamoq, bilim.

Bugungi kunda geografiya fani talabalarga tabiat va Yer haqidagi bilimlarni hamda ilmiy dunyoqarashini vujudga keltirib, yer yuzi tabiat, xo'jaligi va aholisi haqidagi turli ma'lumotlar haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa yer yuzining tabiiy manzarasi, tabiatdan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi turmush darajasini, atrof-muhit holatini yaxshilash vositalari, insonlarda ekomadaniyatni shakllantirish usullari haqida mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Tabiiy geografiya kursi talabalarda yerga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatni, ekomadaniyatni vujudga keltirishda va shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Hozirgi pandemiya sharoyitida masofaviy ta'lif tizimida talabalarni mustaqil ishlashi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, bevosita talabalar o'zlari mustaqil kitob o'qishlari hamda mustaqil o'rganishlari talab qilinmoqda. Chunki, har bir mavzuni mustaqil o'rganishda talabalar o'z xotiralarida ma'lumotlarni ko'proq saqlay oladi lar hamda ularda mustaqil fikrlash doirasi kengayib, turli innovatsion g'oyalarni vujudga keltira boshlaydilar.

Tabiiy geografiya darslarini mustaqil o'rganishda talabalar quyidagi metodlardan foydalanishi samarali hisoblanadi. Masalan, Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi kursidagi ma'lum turga oid ma'lumotlarni "Toifalash" grafik organayzeridan foydalanib jadval shaklida jamlash va ularni tartiblab joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, materik va okeanlarning iqlim mintaqalari hamda tabiat zonalari mavzularidagi ma'lumotlardan foydalanib yozuvsiz xaritaga ulardagi asosiy ma'lumotlarni tushirib chiqishi ma'lumotlarni yodda qolishida katta yordam beradi. "Toifalash" grafik organayzeri talabalarni o'rganilayotgan mavzuning muhim xususiyat va jihatlarini aniqlash, ma'lumotlarni umumlashtirishga o'rgatadi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko'nikmalari shakllanadi. Bir turdag'i ma'lumotlarni jamlab jadval shakliga keltirib o'rganish interfaol metodi yangilik bo'lmasa ham hozirda ushbu metoddan foydalanuvchilar soni kamayib bormoqda bunga sabab esa dars vaqtida bu metod biroz ko'p vaqtini olishi hisoblanadi.

Lekin, bu metodni mustaqil o'rganish vaqtida yo'lga qo'yish birmuncha samarali hisoblanadi. Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi o'quv kursini mustaqil o'rganish davomida o'quvchilar quyidagi jadvallarni tuzishi samarali hisoblanadi. Geoxronologik jadval, havo haroratlari, yog'inlar, milliy bog' va qo'riqxonalar, materik burunlari, cho'qqilar, vulqonlar, tabiat zonalari, iqlim mintaqalari, botiqlar, cho'kmalar, ko'llar, daryolar, ilmiy stansiyalar, tuproqlar, o'simliklar, hayvonot olami va sayohatchi geograf olimlar, Dunyo okeani dengizlari, Dunyo okeani oqimlari kabi jadvallar tuzish mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan metodlarni mustaqil o'rganishda qo'llash juda samarali hisoblanib, talabalar ayniqsa o'z ustida ko'proq ishlovchi talabalar uchun juda foydali metod hisoblanadi. Hozirgi kunning talabi yoshlarni iqtidorli, aqli, innovatsiyaga ega bo'lishlari bilan bir qatorda har tomonlama yetuk va barkamol shaxsga aylanishi bugungi ta'lim sohasidagi olib borilayotgan ishlarning natijasidir. Mana shunaqa turli mazmundagi jadvallarni tuzish va uni to'ldirish talabani iqtidori va innovatsiyaga intilishidan dalolat beradi.

Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

- a) Geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixi; b) Geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umumiyligi va alohida predmetlar bo'yicha aniqlash; v) ta'lim va tarbiyaning birligini amalga oshirish;

Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat: umumiy va hususiy geografiya o'qitish metodikasi. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi – bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonini o'ziga xos xususiyatini o'rzanadi. Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tadqiqot usullarini o'rzanadi, bunda asosiy e'tibor o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi.

Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limining mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy metodika ikki qismga bo'linadi:

- tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi;

Geografiya o'qitishning xususiy metodikasi – alohida o'quv predmetilarini maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va umumnazariy xolatlarni aniq o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida qo'llash massalalarini o'rzanadi. Geografiya o'qitish metodikasi geografiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lган o'quv, jarayonlar, tamoyil (prinsip)lar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur tamoyil va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab geografiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

Geografiya o'qitish metodikasining obyekti – mazkur o'quv fani bilan aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayon. Geografiya o'qitish metodikasining predmeti – geografik ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitish usullari, shakllari, o'quvchilarining tarbiyasi va rivojlanishidir. Geografiya o'qitish metodikasining maqsadi – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish. Geografiya o'qitish metodikasining vazifasi – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda

joriy etish. Shuningdek geografiya o'qitish metodikasi quyidagilarni ham o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi:

- Bo'lajak o'qituvchilarga geografik o'quv fanlar bo'yicha chuqur va atroficha bilim berish;
- Maktab geografiyasining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;
- Maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish;
- Maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;
- Geografiya darslarini tuzilishi, o'lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish;
- Geografiya o'qitishni yangi pedagogik va va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;
- Geografik ekskursiyalar, tadqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish;
- O'quvchilarda amaliy geografik ko'nikmalarni shakillantirish texnologiyasini takomillashtirish;
- O'quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.
- Geografiya o'qitish metodikasi talabalar va o'qituvchilarni o'qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan quollantiradi.

Bizningcha, geografik tafakkurni "inson-tabiat-jamiyat" tipidagi muammolarni ularning hududiy yoki fazoviy jihatdan hal etishning muayyan usuli sifatida shakllantirish geografik ta'limning strategik maqsadi sifatida qaralishi kerak. Geografik tafakkur shu ma'noda tizimli, murakkab, fazoviy, ilmiy, dialektik, umumlashgan tafakkurdir. Bu bolalar o'sib ulg'aygan sari rivojlanadi va atrofdagi dunyo haqida tajriba orttiradi. Madaniy-tarixiy yondashuv nuqtai nazaridan geografik tafakkur eng oliy psixik funksiyalardan biridir. Geografiya o'qitishning maqsadlari faoliik xarakteriga ega, ya'ni ularga faqat o'quvchilarning o`zlari o'quv-bilish faoliyati jarayonida erishish mumkin. Ta'lim maqsadlarini belgilash dasturlarni ishlab chiqish va darsliklar yaratish bilan, shuningdek, geografiyani zamonaviy sharoitlarda o'qitish jarayonini tashkil etish bilan bevosita bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Alimqulov N.R. Abdimurotov O.U. Yandasheva G. Sobirov E. "Umumta'lim maktablarida geografiya darslarini o'qitishda kartografik texnologiyalardan foydalanish". Farg'ona vodisida tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning dolzarb muommolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Namangan, 6-7-iyun 2014-yil. 122-124-bet
2. Abdimurotov O.U. "Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol metodlarning qo'llanishi". Ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy interfaol texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2015-yil IITom 25-27-bet
3. Alimqulov N.R. Sultonova N.B. Abdimurotov O.U. " Umumiyl yer bilimi kursida amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish". Geografiya fani va ta'limning zamonaviy muommolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 20-may 2015-yil 361-364-bet.

KONSULLIK HUQUQINING UMUMNAZARIY JIHATLARI

Ne'matova Muborak Odiljonovna
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro huquq
fakulteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10230103>

Abstract: In this article, information on the general theoretical aspects of consular law is reflected.

Key words: Consulate, consular immunity, government, executive actions, honorary consuls, international administrative-legal relations.

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsullik huquqining umumnazariy jihatlari borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Konsullik, konsullik immuniteti, hukumat, ijro harakatlari, faxriy konsullar, xalqaro ma'muriy-huquqiy munosabatlar.

KIRISH (Introduction)

Konsullik munosabatlarining o'rnatilishi va konsulliklarning ta'sis etilishi davlatlar o'rtasidagi bitimlar bo'yicha amalga oshiriladi. Bu munosabatlar diplomatik aloqalar mavjud bo'lмаган, masalan, davlat yoki hukumat de-fakto tan olingan hollarda ham, o'rnatilishi mumkin. Bunday sharoitda konsullik ayrim diplomatik vazifalarni ham bajaradi.

Bu boradagi universal bitim 1963-yilgi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasidir. Bundan tashqari, O'zbekiston ko'plab ikki tomonlama konsullik konvensiyalariga ham ega.

Konsullik munosabatlari muayyan davlatning boshqa davlat hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan xalqaro ma'muriy-huquqiy munosabatlar yig'indisidan iboratdir.

Konsullik munosabatlari istisnoli hollarda, misol uchun urush boshlangan taqdirda, to'xtatiladi.

Konsullik muassasalarining to'rt turi mavjud:

- 1) bosh konsullik;
- 2) konsullik;
- 3) vitse-konsullik;
- 4) konsullik agentligi.

Konsullar davlatning mansabdar shaxslaridir. Amaliyotda, shuningdek shtatsiz yoki faxriy konsullar ham ma'lum. Faxriy konsullar o'zlarini tayinlaydigan davlatning fuqarosi hisoblanmasligi va mazkur davlat xizmatida bo'lmasligi mumkin. Ular faqat konsullik vazifasini bajarganligi uchungina moddiy rag'batlantiriladi.

Har qaysi konsullik muassasasi konsullik okrugi o'z davlati bilan qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi bitimga muvofiq belgilab berilgan hudud doirasida faoliyat yuritadi.

Konsulni tayinlashda muayyan shaxs yuzasidan qabul qiluvchi davlatning oldindan roziliqi talab etilmaydi. Yuboruvchi davlat unga *konsullik patenti* beradi. Qabul qiluvchi davlat esa konsullik *ekzekvaturasi* o‘z okrugida konsullik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi hujjatni topshiradi.

Konsullik muassasalari quyidagi uchta asosiy vazifani bajaradi: birinchisi o‘z davlati va uning fuqarolari, shuningdek yuridik shaxslarining manfaatlarini himoya qilish;

ikkinchisi o‘zaro do‘stona munosabatlar rivojiga ko‘maklashish; uchinchisi konsullik faoliyati sohasiga doir axborot berib borish,
shu jumladan manfaatdor fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli ma’lumotlar taqdim etish.

Konsullar quyidagi vazifalarini bajaradilar:

- 1) konsullik okrugi hududida joylashgan vatandoshlariga qabul qiluvchi mamlakat qonunlari va urf-odatlari haqida ma’lumotlar beradi;
- 2) o‘z fuqarolariga pasportlar va yo‘l chiptalari, shuningdek konsul vakil bo‘lib turgan davlatga borishni xohlovchilarga vizalar berishni amalga oshiradi;
- 3) o‘z okrugi hududida joylashgan vatandoshlarining hisob ro‘yxatini yuritadi;
- 4) muayyan yurisdiksiya, xususan, notarial harakatlarni va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishni amalga oshiradi;
- 5) konsullik legalizatsiyasi, ya’ni qabul qiluvchi davlat hukumati chiqaradigan hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini hamda ana shu hujjatlarning shu davlat qonun-qoidalariga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash bilan shug‘ullanadi;
- 6) fuqarolar vafot etgan taqdirda, ularning manfaatlarini himoya qiladi;
- 7) voyaga yetmaganlar va muomalaga to‘liq layoqatli bo‘lmagan boshqa fuqarolarining manfaatlarini himoya qiladi;
- 8) qabul qiluvchi davlat sudlari va boshqa muassasalarida o‘z davlati fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ko‘rsatma olish maqsadida, fuqarolarning o‘zları bunga erisholmagan hollarda, tegishli ravishda vakillik qiladi yoki vakillikni ta’minlaydi;
- 9) o‘z davlati tergov yoki sudlov organlari topshiriqlarini bajaradi. Konsullar o‘z davlati bayrog‘i ostida suzayotgan kemalarga, shuningdek mazkur davlatda ro‘yxatga olingan samolyotlarga va ularning ekipajlariga nisbatan nazorat va inspeksiya ishlarini amalga oshiradi. Konsullar bunday kemalar va samolyotlarga yordam ko‘rsatadi, ularni ko‘zdan kechiradi va kema hujjatlarini rasmiylashtiradi, yo‘lda sodir bo‘lgan har qanday voqeа-hodisani o‘rganib chiqadi, kapitan bilan ekipaj o‘rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal etadi.

Konsullik immuniteti to‘lig‘icha mazkur muassasaga va uning xodimlariga tegishlidir. Muassasa immuniteti xizmat binolarining daxlsizligidan iborat. Mahalliy ma’murlar bu yerga konsul yoki diplomatik vakolatxonaning ruxsati bilan kirishi mumkin. Bunday ruxsatning berilishi yong‘in yoki tabiiy ofat yuz bergen hollarda ko‘zda tutiladi. Konsullikka qarashli barcha binolar, shuningdek mol-mulk, shu jumladan transport vositalari jamoatchilik ehtiyoji

uchun rekvizitsiya qilinishdan xolidir. Konsullik arxivlari ham diplomatik arxivlar singari daxlsiz hisoblanadi. Ammo qabul qiluvchi davlat hokimiyati organlari konsullik valizlari (pochtalari)ni, agar unda olib ketish uchun ruxsat berilgan narsalardan yoki konsullik yozishmalaridan tashqari boshqa narsa mavjudligiga gumon qilinsa, ohib ko‘rishni talab qilishi mumkin.

Konsullik o‘z davlat bayrog‘i va gerbidan foydalanishi mumkin. Konsullik binolari va konsulxona boshlig‘ining qarorgohi barcha soliqlardan ozod etiladi. Konsullik xodimlari qabul qiluvchi mamlakatning barcha hududlarida erkin harakatlanishi mumkin. Konsullik muassasalari barcha aloqa vositalari, shu jumladan kuryerlar va shifrli ma’lumotlardan foydalangan holda, erkin rasmiy aloqalarni amalga oshirish huquqiga ega.

Konsullik o‘z fuqarolari bilan, ushbu fuqarolar esa konsulxona bilan erkin aloqada bo‘ladi. Qabul qiluvchi davlatning tegishli organlari konsulxonaga u vakili bo‘lgan davlatga mansub fuqarolarning qamoqqa olinishi yoki ushlab turilishi bilan bog‘liq barcha holatlar haqida zudlik bilan ma’lum qiladi. Konsullar qamoqdag‘i o‘z fuqarolarini, agar ular bunga qarshi bo‘lmasa, borib ko‘rishi mumkin.

Qabul qiluvchi mamlakat ma’murlari konsullikka u vakili bo‘lgan davlat fuqarolarining o‘limi va ularga nisbatan vasiylik o‘rnatalishi, shuningdek mazkur davlatda ro‘yxatga olingan kemalar va samolyotlarning halokatga uchrashi kabi barcha holatlar haqida xabar beradi.

Konsullik o‘z vakolatiga kiruvchi aktlarni amalga oshirganligi uchun konsullik yig‘imini undirish huquqiga ega.

Konsulxona xodimlarining immuniteti funksional prinsipga asoslanadi. Immunitetni belgilash maqsadida konsulxona xodimlari uchta toifaga ajratiladi:

- 1) konsullikning mansabdor shaxslari konsullik vazifasini bajaruvchi shaxslar;
- 2) konsullik xodimlari ma’muriy yoki texnik vazifalarni bajaruvchi shaxslar;
- 3) xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar.

Konsullikning mansabdor shaxslari shaxsiy daxlsizlikdan foydalanadi, ular qamoqqa olinishi yoki dastlabki tergovda qamoqda ushlab turilishi mumkin emas. Og‘ir jinoyat sodir etish hollari bundan mustasnodir. Lekin bunday hollarda ham kuchga kirgan sud qarori asosidagina ularning shaxsiy erkinligi cheklanishi mumkin. Konsullikning mansabdor shaxsiga qarshi jinoiy ish qo‘zg‘atilgan taqdirda, u tegishli vakolatli organlarga borishi zarur. Bunday hollarda va mansabdor shaxs qo‘lga olingan taqdirda qabul qiluvchi davlat ma’murlari konsullikni zudlik bilan xabardor etadi.

Mansabdor shaxs va xodimlar xizmat vazifasini bajarish vaqtida sodir etgan harakatlariga nisbatan mahalliy yurisdiksiyadan immunitetga egadir. Ushbu qoida uchinchi tomon transport vositasi bilan yetkazilgan zarar uchun qo‘zg‘atgan fuqarolik da’vosiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Konsulxonaning xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari guvohlik ko‘rsatmalari berish uchun sudga chaqirilishi mumkin. Konsullik xodimlari va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar sudda ko‘rsatma berishdan bosh tortishi mumkin emas. Agar konsullikning mansabdor shaxsi sudda ko‘rsatma berishdan bosh tortsa, unga nisbatan hech qanday majburlash choralar qo‘llanilmaydi.

Konsullikning mansabdar shaxslari va xodimlari, shuningdek ularning oila a'zolari barcha soliq va yig'imlardan ozod etiladi. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ish haqiga solinadigan soliqlardan ozod etiladi. Konsullikning mansabdar shaxslari bojxona to'lovlari va ko'rigidan ozod etiladi. Mansabdar shaxslarning yuklari orasida olib kirish yoki olib chiqish taqiqlangan narsalar borligi yuzasidan jiddiy asoslar mavjud bo'lgan holatlarda ko'zdan kechirilishi mumkin. Bunday hollarda yukni ko'zdan kechirish konsullik mansabdar shaxsi huzurida amalga oshirilishi shart.

Davlat konsullik xizmatchisining immunitetidan voz kechishi mumkin. Konsullik xizmatchisining suddagi fuqarolik da'vosi uni qarshi da'voga nisbatan immunitetiga murojaat qilish huquqidan mahrum etadi. Sudlov immunitetidan voz kechish sud qarori bo'yicha ijro harakatlariga nisbatan immunitedan voz kechish, degani emas.

O'zbekistonda konsullik munosabatlariiga oid barcha masalalar 1996-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining konsullik ustavi bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respubli-kasida konsullik xizmati.

O'zbekiston Respublikasida konsullik xizmatining huquqiy asoslarini «O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi» tashkil etadi. Konsullik ustavi 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan bo'lib, 4 bo'lim, 13 bob, 78 moddadan iborat. Konsullik ustavi 1963-yilgi Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi qoidalari asosida tayyorlangan. Konsullik ustavi to'rt guruh konsullik xizmatiga oid munosabatlarni tartibga soladi:

birinchidan, konsullik muassasalari va ularning faoliyatini tashkil etish;

ikkinchidan, konsullik vazifalari va ularni bajarish tartibi;

uchinchidan, notarial harakatlar, konsulning hujjatlarini qonunlashtirish, konsullik yig'imlari;

to'rtinchidan, imtiyozlar hamda immunitetlar va konsul vazifasining tugatilishi.

O'zbekiston Respublikasi qaysi davlatlar bilan konsullik munosabatlari o'rnatgan bo'lsa, shu davlatlarda konsullik muassasalarini ta'sis etadi. Konsullik munosabatlarini o'rnatishga oid bitim bo'limgan taqdirda, diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi konsullik munosa-batlarning ham o'rnatilishi deb hisoblanadi. Biroq diplomatik munosabatlarning uzilishi o'z-o'zidan konsullik munosabatlarining ham uzilishini va O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasining tugatilishini anglat-maydi.

O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari chet ellarda O'zbekiston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Konsullik muassasalari konsullik joylashgan davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasining do'stona munosabatlari rivojlanishiga hamda ular bilan iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy va boshqa aloqalarning kengayishiga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi hamda konsullik joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga, xalqaro prinsiplarga, ushbu Ustavga, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi.

Konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligiga bo'ysunadi va konsulxona joylashgan davlatlarga O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi boshlig'inining umumiy rahbarligida ish ko'radi.

O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo‘limlarini konsullik bo‘limlarining mudirlari boshqaradi. Bosh konsulxonalar, konsulxonalar, vitse-konsulxonalar va konsullik agentliklarini tegishli bosh konsullar, konsullar, vitse-konsullar va konsullik agentlari boshqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari bo‘lmagan davlatlarda konsulxona joylashgan davlatning roziligi bilan konsul zimmasiga diplomatik vazifalar ham yuklatishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Юлдашева Г. Дипломатик ва консуллик хукуки. Укув кулланма. – Т.: ТДЮИ, 2007 й.
2. Yuldasheva G. Diplomatik va konsullik huquqi. O’quv qo’llanma – T.:4’ TDYul, 2009 y.
3. Миркасымов С.М., Рахимова М.А. Дипломатическая служба: теория И практика. Учеб. Пос. -Т., 2004.

O'QUVCHI-YOSHLAR ORGANIZMINI FUNKSIONAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VA CHINIQTIRISHNING FIZIOLOGIK ASOSLARI

RÖZIYEVA SHAHLO Toraqul qizi

*Navoiy davlat Pedagogika Inustituti Jismoni
Madaniy xotin qizlar yonalishi 103 guruh
Talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10230593>

Annotatsiya: Organizmni funksional imkoniyatlari haqida tushuncha, organism funksional imkoniyatlarini yoshga qarab o'zgarishi. Chiniqtirishning fiziologik asoslari, an'anaviy chiniqtirish metodlarini fiziologik asoslari, noan'anaviy chiniqtirish metodlarini fiziologik asoslari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, sport, fiziologik.

Organizmni funksional imkoniyatlari haqida tushuncha, organism funksional imkoniyatlarini yoshga qarab o'zgarishi. Funksional imkoniyatlar haqida umumiy tushuncha. Odamning odadtagiga nisbatan alohida sharoitlarda juda katta hajmdagi ishlarni bajarishi, juda kuchli jismoniy kuchlanishlarni amalga oshira olish, shuningdek jismonan chiniqqan kishining jismonan chiniqmaganga nisbatan ko'proq ish bajarishi hammaga ma'lum. Bunga sabab odam organizmi yashirin imqoniyatlarga (rezervlarga) ega bo'lib, ularning alohida sharoitlarda qo'llash mumkin, shu bilan birga jismonan chiniqqan kishi chiniqmagagan kishiga nisbatan ko'p rezervlarga ega bo'ladi. Adaptasiyaning biologik rezervlarini hujayra, to'qima, organ, sistema va yaxlit organizm rezervlariga bo'lish mumkin. Hujayra rezervlari ish bajaradigan strukturalari bilan bog'liq bo'lib, organning kuchlanishida ular soni talab etilgan darajada ortadi. Yuqoriroq darajada tuzilgan organizmning turli organlar sistemalarining funksional rezervlari bajaratdigan ish hajmi birligi uchun sarflanadigan quvvatning kamayishida, ish shiddati va samarasining ortishida nomoyon bo'ladi. Yaxlit organizmning rezervlari har xil murakkablikdagi harakat vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yaxlit reaksiyalar ortishi va atrofmuhitni ekstremal sharoitida organizmning adaptasiya qilishida (Moejuxin A.S., 1084) qisqacha qilib aytganda, organizmning funksional rezervlari organ yoki funksional sistemalar ishining tinch holatdagiga nisbatan ortish darajasidir. Odatta, kishining funksional rezervlari yuqori quvvatdagi jismoniy ishlarni bajarish paytida u ekstremal sharoitlarga duch kelganda ancha to'liq namoyon bo'ladi. Masalan, sport mashqi bilan shug'ullanishda, musobaqada, yuqori haroratli sharoitda ishlashda, gipoksiya ta'sirida va hokazo hollarda. 1-rasm. O'quvchi-yoshlar organizmida funksional imkoniyatlar Sportchining funksional rezervlariga bioximik, fiziologik, sport texnikasi va ruhiy rezervlar kiradi. Fiziologik rezervlar boshqa rezervlarning asosi bo'lib, fiziologik funksiya sistemalari ishi rivojlanganda boshqa rezervlar ham rivojlanadi. Fiziologik rezervlar quyidagi rezervlar bo'lishi mumkin: 1. Jismoniy sifatlar (kuch, tezlik va chidamlilik)ni rivojlantiradigan

rezervlar: 2. Har xil quvvatdagi (maksimal, submaksimal, katta va o'rtacha) ishlarda ishga tushadigan rezervlar. 3. Ishga tortilish navbatli bo'yicha funksional rezervlar uch guruhga bo'linadi: I-kundalik hayot faoliyatida ishga tushadigan; II- mashq qilish va musobaqalarda ishga tortiladigan va III-organizmning yashash uchun kurashida ishga tushadigan rezervlar. Birinchi gurux fiziologik rezervlar mexanizmi shartli va shartsiz reflekslardan iborat. Ikkinci navbatdagi fiziologik rezervlar organizmning odatdagidan tashqari sharoitlarida ishga safarbar etiladi. Bu rezervlarga birinchi navbatdagi rezervlardan tashqari hayajonlanish (emosiya) mexanizmi ham qo'shilib, ularning ishga tushishi «aktivlanish reaksiyasi» tarzida bo'ladi. Uchinchi navbatdagi fiziologik rezervlar organizmning yashash uchun kurash jarayonida, ya'ni organizm hayoti havf ostida qolgan sharoitlarda safarbar etiladi. Bunday holatlarda kishilarda hyech qachon kuzatilmagan kuch, tezlik, chaqqonlik va chidamlilik fazilatlari yuzaga keladi. Bu reaksiyalar «o'tkir stress» tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bu reaksiyalar organizm salomatligini uning turli zararli omillarga chidamliliginizi zaiflashtirishi mumkin. Jismonan chiniqqan organizm jismonan chiniqmagan organizmga nisbatan ancha yuqori fiziologik rezervlarga ega bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan mulohazalar bilan bir qatorda, organizm funksional rezervlarning irsiyatga bog'liqligini ham unutmaslik zarur. Turli shaxslardagi fiziologik funksiyalarning og'ir jismoniy ish bajarishda turlicha rivojlanishi fikrimizning dalili bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish salomatlikni shakllantirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizda yetishib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning ajralmas qismi hisoblanadi. 2-rasm.O'quvchiyoshlar organizmmini funksional rivojlanishi. O'quvchilarning funksional imkoniyatlarini rivojlantirishning ahamiyati. Jismoniy madaniyat va sport bolalar hamda o'smirlarda ko'pgina fazilatlar, shu jumladan, ularning jismoniy baquvvat bo'lishi, harakat ko'nikmalari hamda jismoniy xususiyatlari takomiliga yetishi, organizmning zaxira kuchlari, ish qobiliyati, ko'pgina kasalliklarga nisbatan qarshilik kuchining oshishiga yordam beradi. Biroq chidamlilik, umumiyl salomatlik holati hammada bir xil bo'limganidek, yuklama ham bir xil bo'lishi mumkin emas. Maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash vazifalari 1. Sog'ligini mustahkamlash, o'quvchilarni chiniqtirish, ularning to'g'ri jismoniy rivoji va yuqori aqliy ish qobiliyatini saqlab turishiga ko'maklashish. 2. Jismoniy xususiyatlarini tarbiyalash (chaqqonlik, kuchlilik, tezlik, bardoshlilik, qayishqoqlik) va hayotiy zarur harakat ko'nikmalari: yurish, yugurish, sakrash, otish, tirmashib chiqish, oshib o'tish, safda yurishga tayyorgarlik, qomatni rostlash, muvozanatni saqlashga doir mashqlar, harakatlar aniqligi va muvofiqligi, ritm hamda sur'at sezgisi, jamoa bo'lib harakat qilish ko'nikmalari orqali o'quvchilarni "Barkamol avlod uchun" me'yoriy talablarini bajarishga tayyorlashni shakllantirish. 3. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus bilimlardan xabardor qilish va tashkiliy ko'nikmalarni, shuningdek, shaxsiy hamda jamoat gigienasi ko'nikmalarini, madaniy xulqatvor odatlarini singdirish, jismoniy barkamollikka yetishish maqsadida mustaqil mashq qilishni bilish. 4. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchilarda o'zi hamda jamiyat uchun zarur bo'lgan iroda ko'nikmalari: maqsadga intilish, tashabbuskorlik, dovyuraklik, matonatlilik, intizomlilik, chidamlilik, sarosimaga tushmaslik, shuningdek, birodarlik, do'stlik va jamoa bo'lib harakat qilish xususiyatlarini

shakl-lantirish. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari oldida turgan vazifalarini amalga oshirishda turli sinflardagi o'quvchilarning sog'lik holati, yoshi, jinsi, jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarligi hisobga olinadi. Mazkur bo'limda turli yosh davrlaridagi o'quvchilarga ushbu qo'llanmaning bundan oldingi bo'limlarida bayon qilingan xususiyatlarini nazarda tutgan holda, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari bo'yicha tavsiyanomalar taqdim qilinadi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari: - salomatlikni mustahkamlash va me'yoriy jismoniy rivojlanishga ko'maklashish; - harakatli sifatlar rivojlanishiga ko'maklashish: chaqqonlik, tezkor-kuchlilik, mushak kuchi, chidamlilik va bo'g'lnlardagi harakatchanlik; - harakatlanish va statik holatlarda gavdani to'g'ri tutish malakasini mustahkamlash; - o'yinli vaziyatlarda oqilona va murakkab hayotiy-amaliy, shuningdek, sportning harakatli turlarini o'zlashtirish. Kichik mакtab yoshidagi bolalar chidamlilikning yuqori rivojlanish darajasi bilan farqlanishmaydi. Biroq 10 yoshga kelib ularda tezkor ishlarni qayta-qayta bajarishga bo'lgan qobiliyat oshib boradi (qisqa masofalarga qayta-qayta yugurish), shuningdek, davom etayotgan vaqt ichida kam jadallik talab qiladigan ishlarni (sekinlashgan yugurish) bajarish ishtiyoqi kuchli bo'ladi. Binobarin, sekinlashgan yugurishdan kichik mакtab yoshidagilarga chidamlilikni rivojlantirish orqali, undan qulay vosita sifatida muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin. Boshlang'ich maktabda birinchi jismoniy tarbiya darslaridan boshlaboq, umumiy chidamlilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish taklif etiladi. Bu o'rinda asosan bir maromdag'i sur'atda sekinlashgan yugurishdan foydalanish tavsiya qilinadi. 4-sinfdan boshlab bir qator o'zgacha uslublar qo'llaniladi – masofa tobora kamaytiriladi va tegishli ravishda tezkorlik oshirib boriladi, bu o'rinda yurak qisqarishlarining chastotasi (YuQCh) daqiqasiga 170-185 zarbalar doirasida saqlanib turadi. Dam olish uchun 45-90 soniya ajratish tavsiya etiladi. Kam jadallik talab qiladigan mashq-larni bajarishda ularning davomiyligini astasekin oshirib borish orqali, 11-12 yosh-dagi bolalarda yugurish tayyorgarligi hajmini haftasiga 14 km.gacha yetkazish mumkin. Shuningdek, 1 km.dan to 1,5 km.gacha yurish va yugurish ham chidamlilikni rivojlantiradi. Bu o'rinda dam olish uchun dinamik va bo'shashishga qaratilgan mashq-lar turini tanlab olish tavsiya etiladi. Umumiy chidamlilikni tarbiyalashda sekinlashgan, ayniqla, kesishgan joylar bo'ylab yugurish a'lo darajadagi vosita hisoblanadi. Maktab amaliyotida sekinlashgan, takroriy va bir maromdag'i ishlarni qo'llash uslubining imkoniyati bor. Ko'plab tad-qiqotchilar mana shu fikrga kelishar ekan, chidamlilikni 8-30 daqiqa davomida sekinlashgan yugurishdan foydalangan holda, kichik mакtab yoshidan tarbiyalash zarur, deya hisoblashadi. Chiniqtirishning fiziologik asoslari, an'anaviy chiniqtirish metodlarini fiziologik asoslari, noan'anaviy chiniqtirish metodlarini fiziologik asoslari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. O'rta yoshdagi mакtab o'quvchilar uchun jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari: - salomatlikni mustahkamlash va me'yoriy jismoniy rivojlanishga ko'maklashish; - harakatli sifatlar rivojlanishiga ko'maklashish: chaqqonlik, tezkor-kuchlilik, mushak kuchi, chidamlilik va bo'g'lnlardagi harakatchanlik; - harakatlanish chog'ida va statik holatlarda gavdani to'g'ri tutish malakasini mustahkamlash; - oqilona va murakkab hayotiy-amaliy, shuningdek, o'yinli ham-da musobaqalashish sharoitlarida harakatli sport turlarini o'zlashtirish; - alohida gimnastika, yengil atletika, suzish, sport o'yinlari (basketbol, voleybol, gandbol, futbol)

mashqlarini bajarishda texnika asoslariiga o'qitish; - o'z-o'zini nazorat qilish asoslari bilan tanishtirish va jismoniy mashqlarni bajarish paytida YuQCh bo'yicha yuklamalarni me'yorlash. O'rta maktab yoshidagi jismoniy tarbiya vositalari – asosiy turkum mashqlar, otish, sakrash, yuqoriga chiqish, tikkama va yonlama to'siqlarni kesib o'tish, sport o'yinlariga doir texnika asoslari, shuningdek, harakatli faoliyatning yangi texnologiyalari: aerobika va boshqalar bilan mashq qilishni o'rgatish. O'rta maktab yoshidagi jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchining o'rni bir oz boshqacharoq bo'ladi, endi u tashkilotchi va yordamchi. Mashg'ulotlarni o'tkazish paytida o'qituvchi asosiy e'tiborni, jismoniy mashqlarni mustaqil ravishda bajarish malakasini egallahsga va ularni organizmning turli tizimlariga ta'sir ko'rsatishga qaratadi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun jismoniy tarbiyaning vazifalari: - salomatlikni mustahkamlash, har tomonlama jismoniy rivojlanishga ko'maklashish o'quv jarayoni davomida yuqori ishchanlik qobiliyatiga erishish va uni ushlab turish; - barcha harakatli sifatlar har tomonlama rivojlanishini ta'minlash; - sport mashqlari asoslari va o'z-o'zini nazorat qilishga doir bilimlarni chuqurlashtirish; - jismoniy mashq mashg'ulotlarini mustaqil bajarishga bo'lgan turg'un odatlarni shakllantirish, jismoniy mashqlarga doir mashg'ulotlarning yakka tartibdagi tasturlarini tuzish malakasini egallah va ulardan o'z-o'zini takomillashtirish jarayonida muntazam ravishda foydalanish. Litsey va kollejlarda jismoniy tarbiya ikkita turli das-turlar bo'yicha olib boriladi: o'smirlar va qizlar uchun. Jismoniy tarbiya darslarini ikkita o'qituvchi olib boradi. Shug'ullanayotganlarning guruhiy va yakka tartibdagi uslublaridan, harakatlarni rivojlantirishda esa – yangilangan va mus-taqil ravishdagisidan foydalaniladi. Dars-lar sport mash-q-lari xarakterini kasb etadi. Jismoniy tarbiya o'qi-tuvchisi murabbiy-uslubchi vazifasini bajaradi. Darsni o'tkazish uslubiyati kattalar bilan mashg'ulot o'tkazish uslubiyatiga yaqinlashtiriladi. Yuklamalar dinamikasi, sport mashqlari uchun xarakterli bo'lgan darajaga yetadi. Qizlar bilan mashg'ulot o'tkazilayotganda mushaklar va kichik tos a'zolarini avaylash, ichki qorin bosimi oshishini keltirib chiqaradigan mashqlardan qochish lozim bo'ladi. Bu nafasni tutib turish, kuchanish, og'ir narsalarni ko'tarish, chuqurlikka sakrash mashqlariga taalluqlidir. Darslar mundarijasи, yuklamalarni me'ylashtirish va jismoniy tayyorgarlikni baholash jinsga bog'liq holda tabaqlashtiriladi. Bu yoshda o'quvchilarning fizika, kimyo, biologiya dars-larida olgan bilimlariga tayangan holda, jismoniy mashqlarni mustaqil ravishda tahlil qilish qobiliyatini rivojlanish zarur bo'ladi. Statik sa'y-harakatlarni talab qiladigan yuqori yuklamalar va mashqlardan foydalaniladi. Bunga tezkorlikda bajariladigan, qo'shimcha topshiriqlar bilan malollik keltiradigan mashqlar xarakterlidir. Chaqqonlik-kuchlilik qobiliyatları yaxshi rivojlna boshlaydi. Umumiylar va tezkor chidamlilikni rivojlanishda uchun sharoitlar yaratiladi, u esa ishchanlik qobiliyatini oshirishga, irodaviy sifatlar rivojlanishiga imkon beradi. Jismoniy takomillashish va sportning boshqa turlariga bo'lgan moyillik va qiziqishlarni shakllantirish zarur. Shuning-dek, o'quvchilarni mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilish usullariga o'rgatish ham muhimdir. Yuklamasi uzoq vaqt jadallik bilan davom etadigan mashqlar 80-85 foiz maksimallikdan oshmasligi lozim. Aerobika, bodibilding, musiqa ostida bajariladigan turli xil mashqlarni qo'llash tavsiya etiladi. Mazkur yosh toifasidagi o'quv-chilarda jismoniy tarbiya vositalarining barcha turlaridan foydalaniladi, ular o'rta maktab yoshidagilarga qiyoslanganda, nisbatan

kengayganligi bilan ajralib turadi. Sport o'yinlarining texnik usullaridan keng foydalilaniladi: qizlar uchun – aerobikaning turli turlari, badiiy gimnastika, o'g'il bolalar uchun – kurash elementlari, harbiy tayyorgarlikning safli usullari va to'siqlarni kesib o'tish, trenajyorlarda mashqlar bajarish, atletizm shular jumlasidandir Harakat malakasi va uning shakllanishi. Harakat qilish (chopish, yurish, tana a'zolarining bukilib yozilib ish bajarishi va hokoza) oddiy holat bo'lmasdan, balki uning murakkabligiga qarab, nerv, suyak muskul tizimi tegishli darajada ishtirok qiladigan, hamda ma'lum energiya sarflanib amalga oshiriladigan biomexnik jarayondir. Sportchining harakati esa yana murakkabroq, u aniq va maqsadga muvofiq bo'lishi uchun harakatning har bir qismi markaziy nerv tizimi tomonidan toboro mukammallashtirilib boriladi. Oddiy harakatlarni bajarish ham yig'uvchi va yozuvchi muskullardan tashqari bo'g'im va paylarning ma'lum tartibda faoliyat ko'rsatishini talab qilib, bu boradagi umumiyl boshqaruvni markaziy nerv tizimi olib boradi. Markaziy nerv tizimining boshqaruvchilik faoliyati murakkab bo'lib, unga har qanday ish bajarishda ma'lum muskullarning qisqarishi va bo'shashishini ta'minlashdan tashqari tanani belgilangan bir muvozanatda ushlab turish ham kiradi. Odam tayanch maydoni uncha katta bo'limgan a'zolar yordamida (tovon va oyoq panjalari) shunday murakkab harakatlarni amalga oshiradiki, bu yerda asosiy rolni markaziy nerv tizimining boshqaruvchilik funksiyasi o'ynaydi. Bu funksiyani har tomonlama batafsil bajarishda markaziy nerv tizimining, ayniqsa yarim sharlar po'stlog'ining plastiklik xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi (ma'lum bir funksiyani po'stloqning turli qismlari tomonidan bajarilishi). Yarimsharlarning ikkita qismidan, ya'ni chap va o'ng bo'laklardan iboratligi ham uning plastiklik xususiyatida katta ahamiyatga ega. Markaziy nerv tizimining ushbu xususiyatlari bois bir hil harakatlar turli xil muskullar ishtirokida ham bajarilaveradi. Masalan, o'ng qo'l amalga oshiradigan ishni chap qo'l bilan yoki chap qo'l o'rni o'ng qo'l bilan ishslash mumkin. Ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, ayrim kishilar oyoqlari bilan xat yozadi, rasm chiza oladi, haykaltaroshlik qiladi va hokoza. Bu misollar markaziy nerv tizimining plastiklik xususiyatini yana bir bor namoyon qiladi va u jismoniy tarbiya va sport amaliyotida katta rol o'ynaydi. Har qanday harakatni boshqarishda markaziy nerv tizimidan tarqalgan birgina efferent impulsatsiya kamlik qiladi. Amalga oshiriladigan harakatning mukammal bo'lishi uchun markaziy nerv tizimiga tegishli a'zolarning jismoniy ish qilishda tutgan o'rni, harakat tezligi, yo'nalishi va hokozalar haqidagi ma'lumot zarur. Shundagina harakat maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday aloqa efferent impulsatsiya tufayli o'tkaziladi va u fiziologiyada teskari aloqa deb aytildi. Bunday impulsatsiyaning yoki teskari aloqaning asosiy manbai turli xil sensor a'zolarining retseptorlaridir. Sensor so'zi lotincha sensus - sezgi demakdir. Bu tizimga odamdag'i barcha sezgi a'zolari kiradi, ya'ni ko'z, vestibulyar, eshitish a'zolari, teri sezgisi va boshqalar. Mo'ljallangan harakat bilan uning amalga oshirilishi orasida doim farq bo'ladi. Bu farq markaziy nerv tizimi orqali tahlil qilinib, amalga oshiriladigan harakatga doimiy suratda tuzatishlar kiritilib boriladi. Tana a'zolarining ma'lum ish bajarishda bir tekisda bajarilishi uchun teskari aloqaning o'rni katta. Agar tana muskullaridan, teridan markaziy nerv tizimiga teskari aloqa o'z vaqtida qabul qilinmasa (afferent impulsatsiya) bajariladigan har qanday harakat qo'pol bo'lib, uning amalga oshirilishida anqlik va nafislik yo'qoladi. Teskari aloqaning amalga oshishi asosan ikki guruh axborot manbalariga tayanadi, birinchisi ichki axborot manbalarini, unga

bug’imlar, paylar, muskullardan keladigan afferent impulslar kiradi. Buni harakat apparatidan keladigan axborot ham deyiladi. U harakatning aniq bo’lishi uchun muhim, chunki harakat apparatidan markaziy nerv tizimiga keladigan axborot boshqa analizatorlardan keladigan axborotlarga qaraganda to’liq va mukammal bo’ladi. Masalan, shtangani aniq ko’tarish uchun (uni tana og’irlik markaziga nisbatan qancha masofada tutib turganda maqsadga muvofiq bo’lishi) uni ko’rib turish shart emas, bu haqda aniq axborot faqat proprioreseptiv retseptorlardan (muskullarning o’zidagi nerv uchlardan) keladi. Tashqi axborot manbalaridan keladigan xabarlarga ko’ra kishi o’zini o’rab olgan bo’shliqda qanday sharoitda turganligidan xabardor bo’ladi. Bunday axborot ko’rish, vestibulyar, eshitish, teri sezgisi va ayniqsa qayd qilganimizdek harakat apparati tomonidan markaziy nerv tizimiga borib turadi. Bularning ichida maqsadli jismoniy ish qilish nuqtai nazaridan eng muhimi ko’rish sensor tizimi bo’lib, u orqali narsa predmatlarning qancha uzoqlikda joylashganligi, harakat qilish tezligi va boshqa muhim axborotlar qabul qilinadi. Eshitish sensor tizimi odam hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lsada muskul faoliyati uchun unchalik zarur emas. Masalan, gung-karlarda ham dirijyor qo’l harakatlariga qarab tegishli mashqlar bilan shug’ullanishlari mumkin. Vestibulyar sensor tizim yordamida odam yerga nisbatan boshning tutgan holatini (past, baland bo’lishi), to’g’ri va aylanma harakatlar bajarishda esa ularning yo’nalishi va kuchini payqab turadi. Agar gung-karlarda vestibulyar analizator ishdan chiqqan bo’lsa ular suvgaga sho’ng’iganda (agar ko’z yopiq bo’lsa) tana holatini sezsa olmaydi. Shuning uchun ularda sho’ng’ish (ko’z ko’rmay turganda) chog’ida tana harakatini boshqarib borish juda qiyin. Bajarilgan va bajarilayotgan harakatlarni tahlil qilish (markaziy nerv tizimi tomonidan) ko’rish va harakat sensor tizimlardan qabul qilingan axborotlar asosida bo’ladi. Sport bilan shug’ullanish borasida harakat sensor tizimlarining o’zaro kelishib uyg’unlashib ishlashi mukammallashib boradi. Shuning natijasida sportchilarda harakat qilish maqsadga muvofiqlashib, bajariladigan ish serunum bo’ladi. Yaxshi o’zlashtirilgan va mukammal bajariladigan jismoniy mashqlar, harakatlar malakasi hosil bo’lishi tufayli yuzaga keladi. Ba’zan oddiy harakatlar shunchalik darajada o’zlashtirilib olinadiki, ularni kishi avtomatik sur’atda bajaraveradi (masalan, kompyuterda yozuv ishlari). Harakat malakasi fiziologik jihatdan ancha murakkab jarayon bo’lib uning yuzaga kelishida markaziy nerv tizmining turli sohalari, qismlari ishtiroy qiladi. Bu jarayonga muskullar, bo’g’imlar va paylar faoliyati ham tortilib, bir harakatni ketma-ket bajarish tufayli uning amalga bajarilishi avtomatlashtirilgan holda ko’chadi. Mana shunday odatdagagi avtomatlashtirilgan harakatni harakat malakasi deyiladi. Odama hech bir ixtiyoriy harakat tug’ma bo’lmasdan u mashq qilish bilan o’zlashtirilib ma’lum harakat malakasi darajasiga ko’tariladi. Sportda bajariladigan har qanday harakatga nisbatan malaka hosil bo’lishi davomli mashq qilishni talab qiladi. Harakat malakasi o’zining tabiatiga ko’ra shartli reflektor jarayon bo’lib uning yuzaga kelishida yarimsharlar va po’stloq ostki yadrolari orasidagi vaqtinchalik bog’lanish muhim o’rin tutadi. Harakat malakasi hosil bo’lganidan keyin (tegishli harakat shartli refleksi mustahkamlanganidan keyin) maqsadga muvofiq ish dinamik steriotik tariqasida amalga oshirila boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov.B.A “Jismoniy mashqlar biomexanika” (Kunduzgi va sirtqi bo’limda o’qiydigan talabalar leksiyadan metodik qo’llanma) Toshkent, 2021 y.
2. Axmedov. B.A “Velotrenajerda ishlash” Toshkent., 2018 y.
3. Alimboyev R. “Jismoniy mashqlar biomexanikasi” Toshkent, 2018 y.
4. Qurbanov SH., Qurbanova Sh. Sport fiziologiyasi. Qarshi “Nasaf” 2021
5. Qurbanov SH., Qurbanov A. Jismoniy mashqlarning fiziologik asoslari. Toshkent, 2018.
6. Sodiqov Q. O’quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi T., “O’qituvchi”, 2018.
7. Sodiqov Q. Oilaviy hayot-gigiyena va jinsiy tarbiya “O’qituvchi”, 2017.
8. Almatov K.T. Ulg’ayish fiziologiyasi. M.Ulug’bek nomidagi UzMU bosmaxonasi. T.2019
9. Sodiqov B.A., Quchqarova L.S., Qurbanov CH.Q. “Bolalar va o’smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi”. Oliy o’quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. “O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2016 y.

VBEAM LASER TREATMENT

Khakimov Dilshod Rustamovich
"Candidate of Medical Science" (PhD)

Shakhzoda Murodova
Student of "Kimyo International University in Tashkent"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10242668>

Abstract: This article provides complete information about the Vbeam laser treatment. The Vbeam® Laser pulsed dye laser is a versatile device that was designed primarily for the treatment of cosmetic vascular issues, and can also be used for treating pigmented lesions. In addition, the Vbeam system uses targeted laser therapy to treat redness, acne, wrinkles, and sunspots on the face and chest.

Keywords: Vbeam, laser, redness, acne, wrinkles, scar, pigmentation, oxyhemoglobin, melanin, treatment.

The Vbeam® laser system is a world-renowned, easy-to-use pulsed dye laser recognized as the gold standard technology for the treatment of vascular lesions. The Vbeam pulsed dye laser (PDL) has been proven time and again for the successful treatment of a wide array of vascular, pigmented, and certain non-pigmented lesions, with a low incidence of side effects.

The system uses 595 nm PDL technology to deliver an intense but gentle burst of light into targeted areas of the skin. There it's absorbed by the blood vessels or melanin pigmented areas, removing the targeted imperfections. Most patients notice results right away, and it's clinically proven for multiple skin types.

Vbeam pulsed dye laser (PDL) at a wavelength of 595nm or 1064nm passes through the epidermal and dermal layers of the skin and is absorbed by the oxyhemoglobin in the blood vessels rather than by the surrounding tissue.

Some of the specific problems that can be treated with this device include:

- Broken blood vessels;
- Rosacea;
- Spider veins;
- Vascular lesions;
- Scars;
- Hyperpigmentation.

Vbeam®

Laser treatments for birthmarks, port wine stains, redness, rosacea, dark spots, facial and leg veins, wrinkles, and acne. The Vbeam system is FDA and CE cleared. The Vbeam family includes: Vbeam Perfecta®, and Vbeam Prima®.

Vbeam Laser Treatment Highlights

In a clinical study, a Vbeam 595 nm pulsed dye laser was used to treat infants with port wine stains, resulting in an average port wine stain clearance of 88.6% after a year of treatment.

Rosacea / Redness Treatments

In a clinical study, after an average of 2.6 Vbeam 595 nm laser treatments, patients with blood vessels on the face had a visual improvement of 75% to 100%.

Acne Treatments

In a clinical study, Vbeam 595 nm laser therapy cleared more than 90% of inflammatory acne lesions in treated patients.

Scar and Stretch Mark Treatments

In a clinical study, all scars treated with a Vbeam 595 nm pulsed dye laser showed a significant improvement in appearance.

TREATMENT RESULTS

Vbeam laser treatments are customized to meet your individual skincare needs. The number and duration of treatments will depend on the condition and your skin type. You can typically expect 2 to 4 treatment sessions, each lasting 15 to 30 minutes.

Patients treated with a Vbeam laser system reported experiencing minimal discomfort during treatment. In fact, they were highly satisfied with the results:

- ✓ 100% of patients treated for facial wrinkles reported being satisfied with their results.
- ✓ After 3 treatments, patients had over a 90% reduction in small red veins and dark brown spots.

References:

1. Galeckas KJ, Ross EV, Uebelhoer NS. A pulsed dye laser with a 10-mm beam diameter and a pigmented lesion window for purpura-free photorejuvenation. Dermatol Surg. 2007;34:1-6.
2. Bernstein EF. The pulsed-dye laser for treatment of cutaneous conditions. G Ital Dermatol Venereol. 2009;144(5):557-572.
3. Sami NA, Attia AT, Badawi AM. Phototherapy in the treatment of acne vulgaris. J Drugs Dermatol. 2008;7(7):627-632.
4. According to the Vancouver Scar Scale (VSS), which measures scar vascularity, pigmentation, pliability, and height.
5. Conologue TD, Norwood C. Treatment of surgical scars with the cryogen-cooled 595 nm pulsed dye laser starting on the day of suture removal. Dermatol Surg. 2006;32(1):13-20. PU01783EN-NA, Rev.A

BOVANS BROWN PARRANDALARINING TUXUM MAXSULDORLIGI

*Do'schonov Otabek Davronbek o'g'li
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrootexnologiyalar
institute parrandachilik yo'nalishida 1-kurs magistranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10250884>

Abstract: In this article, information on the egg productivity of Bovans brown birds is reflected.

Key words: brown chicken breed, high quality, storage systems, breeding, strong laying hen, commercial eggs, durable.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bovans brown parrandalarining tuxum maxsuldorligi borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: jigarrang tovuq zoti, yuqori sifatli, saqlash tizimlari, naslchilik, kuchli tuxum qo'yuvchi tovuq, tijorat tuxum, bardoshli.

KIRISH (Introduction)

Parrandachilik- daromadli shu bilan birga ancha nozik soha. Uy parrandalarini yetishtirish chorvachilikning asosiy bir tarmog'i hisoblanib parrandachilikning asosiy mahsuloti oziq- ovqatga ishlatiladigan tuxum va go'sht, qo'shimcha mahsuloti – parranda pati va paridir. Parrandalarni so'yish va uni qayta ishlash chiqindilaridan yem uni ishlab chiqariladi. Parranda go'ngi- qimmatli organik o'g'it hisoblanib bundan 4ming yil muqaddam Hindistonda dastlab tovuqlar xonakilashtirilgan va keyinchalik parrandalarning boshqa turlari ham xonakilashtirila boshlagan. O'zbekistonda 1920-yillarning oxiriga qadar parranda, asosan jaydari kammahsul tovuq zotlari faqat xonadonlarda boqilgan. Respublikada parrandachilikning qishloq xo'jaligi tarmog'i tarzida rivojlanishi 20-asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Bu soha hozirgi kunga kelib chorvachilikdagi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Bunig sababi-parranda boqish kata xarajat talab qilmaydi, saqlash inshaotlari juda oddiy.

Yurtimizda parrandachilika yana katta e'tibor qaratila boshladı Prezident Shavkat Mirziyoyev "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorini imzoladi. Unga ko'ra, 2021-yil 1-iyundan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan parrandachilik xo'jaliklariga — o'z xo'jaliklarida yetishtirilib, realizatsiya qilingan tuxumning har bir donasi uchun 50 so'm hamda parranda go'shtining har bir kilogrammi uchun 1 000 so'm miqdorida respublika byudjetidan subsidiya ajratiladi.

Tovuqchilik-parrandachilikning nafaqat qishloq xo'jaligida, balki uy parrandalarni ko'pytirish bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida keng tarqalgan asosiy tarmog'i hisoblanadi. Aholining yordamchi xo'jaliklaridagi uy parrandalarning umumiyl miqdorining 80 foiznini tovuq tashkil etadi. Beradigan mahsulotiga qarab, tovuqlar tuxumdar (serpusht), tuxumdorgo'shtdor (tuxumgo'sht uchun boqiladigan) va go'shtdor

zotlarga ajratiladi. Shuningdek, Tovuqlarning dakang (urishqoq) va kurkam turlari (sanoat ahamiyati yo‘q) ham bor. Tovuqlar tashqi ko‘rinishi va tuzilishi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Serpusht Tovuqlar kichkina, tez voyaga yetadigan, tuxumdorgo‘shtdor Tovuqlar yirikroq bo‘lib yaxshi rivojlanadi. Go‘sht uchun ajratilganlari alohida sharoitda boqiladi. Serpusht Tovuqlar 1,7-2,2 kg , xo‘rozlari 2,7-3,0 kg , tuxumdorgo‘shtdorlari 2,5-4,0 kg , go‘shtdorlari 3,0-4,5 kg go‘sht beradi. Serpusht zotlar yiliga 220-250 ta, ayrimlari 365 tagacha tuxum qiladi. Zotdor Tovuqlar seleksiya yo‘li bilan ko‘paytirilganda serpusht bo‘ladi. Tovuq 5-6 oylikdan tuxumga kiradi. Dastlabki tuxumi 40-50 g , 1 yoshga yaqinlashgach, 55-65 g . Tuxumdor go‘shtdor zotlar tuxumi mayda. Tovuq tullaganda tuxum qilmaydi. Tullah 2-3 hafta, ba’zilarida 2 oy va undan ortiq davom etadi.

Bovans Brown juda ko‘p qirrali va mustahkam tuxum qo‘yuvchi tovuqdir. Bovans Brown tuxum qo‘yadigan tovuqlar uchun birlashtirilgan belgilar orasida yuqori mahsuldorlik, ajoyib tuxum qo‘yadigan qat‘iyatlilik va tekis tuxum vaznining egri chizig‘i kiradi, natijada yuqori sifatli qora jigarrang tuxum olinadi. Bovans Brown tuxum qo‘yuvchi tovuqlar juda yaxshi ozuqa olish qobiliyatiga va mustahkamlikka ega, shuning uchun u ko‘p yoshdag'i va erkin muhitda genetik potentsialni to‘liq ifodalaydi. Bovans Brown jozibali ko‘rinishdagi qush bo‘lib, tuxum qo‘yish davrida ajoyib tuklar qoplamenti saqlaydi. Bovans Brown - bu umumi mustahkam ishlashni qidiradigan tijorat tuxum ishlab chiqaruvchisi uchun ideal tovuq. Bovans Braun ham qafasda, ham muqobil uylarda bo‘lgani kabi o‘zini kuchli tuxum qo‘yuvchi tovuq ekanligini isbotladi.

Bovans jigarrang tovuq zotining tarixi va kelib chiqishi

Bovan Brown tovuqlarining tarixi 1950-yillarga borib taqaladi, Amerika va mahalliy Gollandiya kompaniyalari o‘rtasida qattiq raqobat mavjud edi.

1954 yilda Gollandiyalik parrandachilar Garri van Duijnoven va uning rafiqasi boshqa uchta oila bilan birga Bovans Organisatie NV (Bovans Poultry Breeders) kompaniyasiga asos solishdi.

Ushbu naslchilik fermasi Bongers oilasidan va qolgan uchta oila, ya‘ni van Duijnoven, van Lankveld va van der Lindenden iborat.

Guruhsda faqat bitta Bo bor edi va uchta furgon bor edi, shuning uchun Bovans nomini oldi.

O’sha paytda ularning naslchilik markazi Garri van Duijnovenning Stivensbekdag'i fermasi edi.

Ular turli xil zotlarni, jumladan, Bovans Brownni ishlab chiqdilar.

Bu juda ko‘p qirrali zot Bovanning muvozanatli naslchilik dasturining natijasidir. Va endi u dunyodagi eng mustahkam qatlam va ko‘p qirrali tovuqlardan biri sifatida tan olingan.

Bovans jigarrang tovuq zotiningjismoniy xususiyatlari

Nomidan ko‘rinib turibdiki, bu zot tuxum qo‘yish davrida ajoyib bo‘lib turadigan bir nechta oq dog‘lar va oq dum uchi bilan oqlangan jigarrang patlarga ega.

Uning go‘zal tuklari bilan mukammal uyg‘unlashgan qizil bo‘laklari, bo‘laklari va taroqlari.

Umuman olganda, bu xuddi shunday ajoyib tuxumlari bilan jozibali jigarrang zotdir. Bovan Brown tovuqlarining vazni 16 xافتада 1920 g va 100 haftada 2005 g.

Ularning o'rtacha tovuq ozuqa iste'moli kuniga 114 g ni tashkil qiladi va ozuqani aylantirish darajasi 2,19 kg / kg ni tashkil qiladi.

Bovan jigarrang tovuqlar odatda itoatkor, chidamli va ayni paytda yumshoq. Ular juda do'stona va o'z odamlari bilan salomlashishni yaxshi ko'radilar. Bu qushlar bolalarga ham yumshoq munosabatda bo'lismasi va ular egasining tizzasida o'tirishni va o'tirishni yaxshi ko'radilar. Shuning uchun ular ideal uy hayvonlari bo'lishi mumkin.

Bovan Brown tovuq zotining tuxum qo'yish imkoniyatlari

Bovan Brown tovuqlari ko'payadigan qatlamlardir va ular tuxum qo'yadigan bo'limda taniqli duragaylardir.

Bovans Brown erta pishganligi, yuqori cho'qqi ko'rsatkichi va mukammal tuxum qo'yuvchanligi tufayli ko'plab sifatli quyuq jigarrang tuxum ishlab chiqaradi.

Har bir tovuq 18 dan 100 haftagacha 464 tagacha tuxum qo'yishi mumkin. Ammo bu tovuqlar erkin bo'ladimi yoki koloniyada bo'ladimi, farq qilishi mumkin.

Koloniyada joylashgan qatlamlar odatda erkin bo'lganlarga qaraganda ko'proq tuxum ishlab chiqaradi.

Har bir erkin yuradigan tovuq 72 hafta ichida 312 ta tuxum ishlab chiqarishi mumkin, ammo koloniyada 323 ta tuxum bo'lishi mumkin.

Ammo har bir erkin yuradigan tovuq uchun 354 ta tuxum va 80-haftada koloniyalarda joylashganlar uchun 366 tuxumgacha ko'payishi mumkin.

Uning eng yuqori ishlab chiqarish darajasi 96% ni tashkil qiladi va u 143 kun ichida ishlab chiqarish tezligining 50% ga yetishi mumkin.

Shuning uchun u bugungi kunda eng yaxshi tijorat tuxum qatlami zotlaridan biridir.

Bovans jigarrang tovuq zoti uchun uy-joy tizimlari

Bovans Brown tuxum qo'yuvchi tovuqlar chidamli va turli iqlim sharoitlariga, boshqaruv rejalariga va tovuqlarni saqlash tizimlariga moslashadi .

Shunday qilib, ular haqida ko'p tashvishlanishingiz shart emas, chunki ular bardoshli.

Bovans Brown qafas uylarida, polda, qushxonada va organik tovuqlarni saqlash tizimlarida omon qolishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida tuxum yo'nalishidagi tovuq zotlari mahsulot bera boshlagan davrda to'g'ri oziqlantirish va parvarishlashni yo'lga qoyilsa, ularnin tuxumga kirgan davrida oqsilga bo'lgan ehtiyojini to'g'ri baholab ozuqa ratsioni to'g'ri yaratilsa ko'zlagan maqsadga samarali erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Qoziyev, N.Hashimov, T.Saidazimov "Parrandachilik 7 xazinaning biri"
2. Raxmatillayev P.E Nurmuhammedov X.N. "Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni parvarishhash qilish" Toshkent 2013- yil
3. Razvedeniye, soderjaniye i kormleniye ptitsi, Per. s nem., 1972; Promishlennoye ptitsevodstvo, M., 1985; Azimov S, Parrandachilikda naslchilik ishlari.

“RUSTAM” DOSTONINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH

Kuvondikova Gavhar Isomiddinovna
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘qituvchisi
kuvondikovag@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10280212>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Rustam” dostonini oliy ta’limning adabiyot darslarida mustaqil ta’lim sifatida o‘qitsih uchun tavsija etilgan. Dostonni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan Muommoli ta’lim va Hamkorlik texnologiyalari asosida “Debat”, “Shohnomaga sayohat”, “Tugallanmagan maktub” va “Qahramonlar ruhiyatiga nazar” usullaridan samarali foydalanilgan.

Abstract. In this article the epic “Rustam” is recommended for teaching as an independent study in literature classes of higher education. Pedagogical technologies based on problem based learning and cooperation technologies such as “Debat”, “Journey to Shahnoma”, “Unfinished letter” and “Looking into the psyche of the heroes” were effectively used in the teaching of the topic.

Kalit so’zlar. Texnologiya, doston, muommoli ta’lim, hamkorlik texnologiyasi, debat, Shohnomaga sayohat, tugallanmagan maktub.

Key words. Technology, epic, problematic education, collaborative technology, debate, trip to Shahnoma, unfinished letter.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hna tarixiy yodgorliklar, muqaddas dinimiz, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning tarixiy xotirasi va ma’rifat tushunchasini shakllantiradigan, uning ma’no-mazmunini boyitadigan asosiy manbalardan biri xalq dostonlaridir.

Xalq og‘zaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg‘or va hayotbaxsh an’analarni o‘zida mujassamlashtirgan ma’naviyat sarchashmasidir. Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. “Rustam” dostoni turonning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki, asarda turon yurtiga xos o‘ylash tarzi, ta’sirlanish yo‘sini, qarorga kelish tutumi g‘oyat nozik ilg‘ab olingan. Bizning nazarimizda doston markazida ma’rifatsizlik, johillik va uning inson taqdiriga ta’siri turadi. Asar qissadan hissa chiqarish uchun emas, balki “qissa”ning o‘zi ko‘lamli, miqyosli, yirik, ta’sirli bo‘lgani uchun aytilgan. Chindan-da, “Rustam” yaratilmagan, balki aytilgan yoki kuylangan. Chunki, doston qahramonlariga xos tuyg‘ular, sezimlar, kechinmalar buyuk turonliklarning tomirida, qonida azaldan mavjud edi¹ “Rustam” dostonida ma’naviy

¹ Йўлдошев К. — достон бадиияти ҳамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикрлар.- Тошкент:
Маънавият, 2002-йил, 28-бет.

merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar alohida o'rinn tutadi.

Xo'sh, bunga qanday erishamiz? Bu jarayonni quyidagi usullarda ko'rib chiqamiz. Oliy ta'linda Adabiyot darsligida mustaqil ta'lim uchun ham dars soatlari ajratiladi. Mustaqil ta'linda "Rustam" dostoni maxsus o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiy ta'lim bu inson tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyati hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni beqiyosdir². Shunday ekan biz dastlab pedagogik texnologiya tushunchasi nima ekanligini bilib olishimiz maqsadga muvofiqli. "Texnologiya" tushunchasi yunoncha "Texnos" (techne) va "logos" (Logos) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Hunar fani"ni o'rganish degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872-yilda qo'llanilgan⁹.

Rossiyalik olimlaridan biri – V.M. Monaxov "Pedagogik texnologiya –

avvaldan rejalshtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir", – degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. "Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi", – deydi u³. M.V. Klarin fikricha, "Pedagogik texnologiya – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir"⁴.

Adabiyot darslarida qo'llaniladigan texnologiyalarga:

1. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi;
2. Muammoli ta'lim texnologiyasi;
3. Hamkorlik texnologiyasi;
4. Loyihalash texnologiyasi;
5. O'yin texnologiyasi.

"Hamkorlik pedagogikasi har bir bola shaxsiyatida demokratik sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Har bir bola huquqini qanchalik his etsa, burchini ham shunchalik darajada anglaydi, faoliyatida qanchalar erkin bo'lsa, bu erkinlik o'zgalarning hurligiga dahl qilmasligi kerakligini shunchalar his etadi",⁵ – deydi Q.Yo'ldoshev o'z dissertatsiya ishlarida. Shunday ekan adabiyot darslarini samadorligini ta'minlashda hamkorlik texnologiyasidan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hamkorlikdagi ta'limning odatdagi o'qitish usulidan asosiy farqi shundaki, individual ta'linda har bir o'quvchi faqat o'zini biladi, atrofdagilar bilan ishi bo'lmaydi. Bilimli o'quvchi

² To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: www.Ziyouz.com kutubxonasi. 2010. – B.

³ Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. - Волгоград: Перемена, 1995.

⁴ Кларин М.В.Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. – Рига: НПЦ Эксперимент, 1995.

⁵ Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Toshkent:1996. –B.59.

boshqalarning ham o'zi kabi bo'lishidan manfaatdor emas. Hamkorlikdagi ta'linda esa guruhdagi har bir o'quvchining to'liq o'zlashtirishi nafaqat uning o'zi, balki guruh a'zolarining hammasi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Hamkorlikda amalga oshirilgan ta'lim nafaqat oson va qiziqarli, balki samarali hamdir. Chunki ko'pdan yaxshi, to'g'ri va yangi fikrlar ko'p chiqishi mumkinligi isbot etilmaydigan haqiqat. Qolaversa, hamkorlikdagi ta'lim o'quvchilarning intellektual rivojiga ta'sir qilibgina qolmay, ularning ma'naviy o'sishini ham tezlashtiradi. Zero, jamoachilik tuyg'usi, bir-biriga yelkadoshlik hissi o'quvchilarda ezgu axloqiy sifatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi⁶.

Asar qahramonlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi natijasida nimalarga erishganligi yoki aksincha holatlarini o'quvchilar tahlil qilishiga sharoit yaratish lozim. Tabiiyki, "Bu qanday amalga oshiriladi", – degan savol tug'iladi, albatta. Bu savolga javob topish uchun bir nechta usullarni ko'rib chiqamiz.

"To'rtinchisi ortiqcha"

Bu metodda guruhlarga kartochka tarqatiladi. Kartochkaning uch qatorida bitta doston qahramonlari va bitta qaysidir qatorida boshqa doston qahramonlari keltiriladi. Guruh a'zolari qaysi doston qahramonlari ortiqcha ekanligini aniqlashi lozim.

1-guruhi

1. Jamshid Ahriman
2. Rustam Ajrang dev
3. Zol Som
4. Suhrob Zobuliston

Boshqa guruhlarga ham shunday tartibda davom etadi.

"Qahramonlar ruhiyatiga nazar" texnologiyasi

Ushbu texnologiyada har bir guruhga alohida qahramonlar beriladi va o'quvchilar berilgan qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlarini misollar asosida yoritib berish topshirig'i yuklatiladi.

Rustamga xos xususiyatlar tasviriga misollar	Raxshga xos xususiyatlar tasviriga misollar	Suxrobga xos xususiyatlar tasviriga misollar
Afsonaviy kuchga egapahlavon, bo'yni hammadan baland, harbiy ishda iste'dotli, maharati yuksak sarkarda	Qora ko'zli, uzun dumli, oyoqlari qora, po'lat tuyoqli, fil quvvatli, bo'yini tuyadan uzun saman	Azamat polvon. O'n yoshga kirganda unga tenglasha oladigan pahlavon topilmaydi.
...

⁶ Rajabova I. Interfaol usul – ta'lrim samaradorligi omili. Til va adabiyot ta'limi – T.: 2015: 8-soni.

Shu tariqa davom etamiz, o'quvchilar qahramonlarning o'zлari mustaqil anglab yetgan xususiyatlarini aytishadi. Asar mazmunini o'qib o'rganish va qahramonlar timsolini tavsiflashga alohida e'tibor qaratiladi. Shu yo'l bilan birga o'quvchilarga dasturda belgilangan nazariy tushunchalarni o'rgatish adabiy tahlil darslarini tashkil etish orqali amalga oshirilsa, albatta, o'z natijasini beradi.

Dars jarayonida hamkorlik texnologiyasini unumli va o'z o'rnida qo'llash orqali ta'lim tizimidagi natijalar anchagina samarali bo'ladi. Bunday texnologiya va usullarning o'ziga xos xususiyatlari, vaqtning unumdorligini oshishi, ijobiy natijalar berishi, qolaversa, bir tomonlama dars o'tishdan cheklanishni taqoza etadi. O'qituvchi o'z ishida hamkorlik texnologiyalari va zamonaviy usullardan foydalanishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dars davomida zerikmasdan faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Hamkorlik texnologiyalaridan dars davomida o'rinni foydalanilsa kutilgan maqsadga erishiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, bilimdonlik talab etiladi.

Adabiy ta'limda o'yin texnologiyalari o'qituvchi hamda o'quvchilarga ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. Darslarda o'yin texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi va dars mavzusiga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Adabiyot darslarida o'yin texnologiyasini qo'llash yaxshi natija beradi. Biz Oliy ta'limda adabiyot darslarining tarkibiga kiruvchi mustqail ta'lim darslarida Shoh Hijron "Shohnoma" o'yin texnologiyasi asosida o'qitishning quyidagi usullarini tavsiya qilamiz:

Ushbu texnologiya o'quvchilarni hikmatnini qiziqish bilan o'qishga undaydi hamda o'rgangan bilimlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, hikmatning ning har bir detaliga e'tibor bilan o'qishga harakat qiladi. O'z bilimlarni belgilangan vaqt ichida namoyish qilishga o'rganadi. O'yin texnologiyasi orqali guruhlar bilan ishlaganda esa sog'lom raqobat tushunchasi shakllanib boradi.

"Rustam" dostonini o'qitishda muammoli vaziyatlarni tashkil qilish usullari.

